

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 41 (1102), 2024-yil 27-fevral, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-fevral kuni texnik jihatdan tartibga solish tizimini isloh qilish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimiz standartlashtirish sohasini isloh qilish va zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish maqsadida Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tashkil etilgan edi.

So'nggi yillarda 12 mingta standart qabul qilindi, 400 turdagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish yo'liga qo'yildi. Natijada 40 ta yangi eksport bozoriga chiqildi.

Shu bilan birga, oxirgi yetti yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2,5 barabarga oshib, 63 milliard dollarga yetdi. Bu yil ham eksportni 1,5 barabarga ko'paytirib, 25 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, istiqbolida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish maqsad qilingan.

Shundan kelib chiqib, amaldagi texnik tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, uning eksportga ko'maklashish va ichki bozorni sifatsiz tovarlardan himoya qilishdagi ishtirokini mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega.

Milliy sertifikatlar chet elda tan olinishi uchun tizimli ishlash, Milliy etalonlar bazasini to'ldirish orqali xorijda mamlakatimiz laboratoriyalarining sinov natijalariga ishonchni oshirish, hozirgi kunda eng zarur bo'lgan texnik reglamentlarning mavjudlarini xalqaro talablarga moslashtirish va yangilarini ishlab chiqish zarur.

Standartlashtirish sohasidagi 6 ta axborot tizimi va 2 ta portalni o'zaro integratsiya qilish, vazirlik va idoralarning standart sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, sohaviy texnik qo'mitalar faoliyatini jonlantirish kerak.

Taqdimotda soha oldida turgan vazifalarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'ridan-to'g'ri Hukumat bo'yusunuviga o'tkazilishi belgilandi.

Eksportchilarga ko'makchi bo'lib, milliy sertifikatlar xorijiy davlatlarda tan olinishi bo'yicha tizimli ishlarni yo'liga qo'yish, sifatsiz mahsulotlar importining oldini olish ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim talablarini amaliyotga joriy etish agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Shuningdek, agentlik soha uchun kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga bevosita mas'ul bo'ladi, aholi va tadbirkorlar bilan ishlashda shaffoflikni ta'minlash uchun sohani to'liq raqamlashtiradi.

Joriy yilda rivojlangan davlatlar bilan sinov natijalarini ikki tomonlama tan olish bo'yicha kelishuvlarga erishish ishlarini davom ettirib, 1,2 mingta korxonalarda

xalqaro sifat tizimlarini joriy etish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, texnik reglamentlar bilan qamrab olingan mahsulotlar turini ko'paytirish, amaldagi 19 ta texnik reglamentni qayta ko'rib chiqish va yangilash, etalonlar va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini joriy qilish ishlarini kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Jahon savdo tashkiloti bilan samarali hamkorlik qilish maqsadida agentlik tuzilmasida Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazini ishga tushirish taklif qilindi.

Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xorijiy konsultantlarni jalb qilish va tarmoqlarda standartga mas'ul kadrlarni o'qitish kerakligi aytiladi. Sohani raqamlashtirish maqsadida "Texnik tartibga solish" yagona elektron axborot tizimi ishga tushirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari ushbu takliflarni ma'qullab, joylarga chiqib, tadbirkorlar bilan uchrashish, ularning standart sohasidagi muammo va takliflarini o'rganish muhimligini ta'kidladi hamda mutasaddilarga qaysi standartlarni ishlab chiqish yoki qayerda laboratoriyalar tashkil qilishga oid aniq rejalarini belgilab, ijrosini ta'minlash bo'yicha topshiriq berdi.

O'ZA

## QUROLLI KUCHLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

26-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan axborot berildi.

Mudofaa vazirining qo'yilgan vazifalar bajarilishi va qo'shinlarning jangovar shayligini hamda qobiliyatini oshirish, ularni zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy-texnika bilan ta'minlash, serjantlar korpusining faoliyatini takomillashtirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida hisoboti tinglandi.

Xususan, qisqa vaqt ichida qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish va harbiy xizmatdoshlarni tayyorlash, harbiy qismlar va bo'linalarda intizomni mustahkamlashga doir normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Qo'shinlar faoliyatini raqamlashtirish vazifalariga alohida

e'tibor qaratildi. Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda aloqa tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar qayd etildi.

Qurolli Kuchlar tuzilmasini takomillashtirish, milliy armiyani zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy-texnik vositalar bilan ta'minlash hamda mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Yakunda davlatimiz rahbari tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatini yanada takomillashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha topshiriqlar berildi.

O'ZA

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA PREZIDENTINI QUTLUG' YOSHI BILAN SAMIMIY TABRIKLADI

26-fevral kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan'anni qutlug' 70 yoshga to'lgani bilan dildan qutladi.

Davlatimiz rahbari Turkiya yetakchisiga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, birodar turk xalqi va davlatining ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Zamonaviy Turkiyaning barpo etilishida, global maydondagi nuфуz yuksalishida, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlaridagi bugungi yuqori darajaga erishilishida Prezident Rejep Tayyip Erdogan'ning o'rni va hissasi alohida qayd etildi.

Barcha darajalarda faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik sur'ati oshib borayotgani katta mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

O'tgan yil yakunida qo'shma korxonalar va loyihalar soni sezilarli darajada — 365 taga ortdi, Turkiyaning

yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan investitsiyalar portfeli kengaydi. Ikki mamlakat o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ham, tegishli ravishda o'zaro sayyohlar oqimi ham ko'paydi.

Davlat rahbarlari oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishi kun tartibini puxta tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston — Turkiya Hukumatlararo komissiyasi doirasida olib borilayotgan ishlarni kuchaytirish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy, shu jumladan, Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlikning dolzarb masalalarini yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

# VATAN, ISTIQLOL VA TARAQQIYOT QAYG'USI



UYG'OQ FIKR

Vatan va istiqloq tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Chunki o'z mustaqilligiga ega bo'lmagan Vatanning Vatanligi qayerga boradi?

Vatanimiz mustaqillikni ham, mustamlakani ham ko'p ko'rgan. Ammo Vatan himoyasi uchun kurash hech qachon to'xtamagan. Xalqimiz Doru hujumlariga ham, Iskandar Maqduuniy, arab istilochilari, Chingizxon, rus bosqiniga qarshi ham mardonavor kurashgan. Har gal mustaqilligini qo'liga kiritganida bu yurtda taraqqiyot qayta yuz ko'rsatavergan.

1991-yili erishgan mustaqilligimiz esa bizga milliy davlat qurish imkonini berdi. O'tgan 33 yilga yaqin davr mobaynida biz dunyo xaritasida o'rimizga ega bo'ldik, hech kimdan kam bo'lmaganimiz, hech kimdan kam emasligimiz va hech kimdan kam bo'lmashimizni ko'rsatdik. Boshqalar ham biz bilan hisoblashadigan bo'ldi.

Yildan-yilga oldinlab boryapmiz. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotni qariyb ikki barobar oshirish, uni jon boshiga yiliga 4 ming dollarga yetkazish oldimizdagi ulkan vazifa qilib qo'yildi. Sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, sport, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda yuksak maralarni ko'zlaganimiz.

Shunga qaramay, ba'zan chetdan turib, ba'zida ichkaridan ham ana shu

suveren davlatimizni, xalqimiz ravnaqini ko'rolmagan ayrim kuchlar erkinligimizga bolta uradigan turli g'arazli g'oyalarni tarqataypti, dag'dag' va diversiya qilyapti. Bu esa biz xalq sifatida jonajon Vatanimiz va istiqloqimizni har kuni, har soat asrab-avaylashimiz lozimligini qayta-qayta uqtirib turganday bo'lyapti.

Biz qadim-qadimdan davlatchilik ko'rgan xalqimiz. Hatto temuriylar qurgan markazlashgan saltanat o'z zamonasida davlatchilikning Yer yuzidagi eng yuksak namunasi bo'lgan edi. Buni o'zimizgina aytayotganimiz yo'q, butun dunyo tan olyapti.

Temuriylarning bevosita davomchilari bo'lmish boburiylar sulolasi Hindistonada naqd 332 yil hukm surib, amalda o'zbek davlatchiligi va madaniyatini o'sha paytlarda nisbatan qoloq hisoblangan bo'lkaga olib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan rus bosqiniga qadar ham Markaziy Osiyoda uch o'zbek davlati hukmronlik qilar edi. Qo'qonda minglar, Buxoroda mang'itlar, Xivada qo'ng'irodlar urug'i vakillari taxt egasi edi.

Yer yuzida topilgan ilk turkiy runik yozuvlarning tili boshqa qirqa yaqin turkiy lison orasida, avvalo, bugungi o'zbek tiliga eng yaqin. Keyinchalik "chig'atoy tili" deb atalgan zabonda yaratilgan merosga ham birinchi galda

biz da'vogarlik qilamiz. Shuning uchun bugungi o'zbek adabiy tili, asosan, o'zbeklarning qadimdan o'troqlashgan bir qismi bilan uyg'urlik mansub bo'lgan qarluk-chigil lahjasiga asoslanadi.

Bu faktlarni shuning uchun keltiryapmizki, chetdan turib ba'zilar millatimizni kechagina paydo bo'lganga chiqaraypti. To'g'ri, 1924-yilning 27-oktabrida Buxoroda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi e'lon qilindi va shu kundan boshlab o'zbek so'zi bugungi o'zbeklar barcha qavmlarining yagona nomiga aylandi. Bu asossiz emas edi, albatta.

Biroq unutmaslik kerakki, bir millatning paydo bo'lishi uning nomi bilan bevosita bog'liq bo'lmashligi ham mumkin. Ya'ni bir tilda so'zlashuvchi xalq oldin paydo bo'lishi, turli davrlarda turlicha nomlanishi, keyin boshqa nom bilan atalishiga qadar ham guvoh. Jahonda buning ko'plab misollari bor. XV asrdagi o'zbek nomi bugungi millatimizning bir qavmini, ya'ni qipchoq lahjasida so'zlashuvchi insonlarni anglatgan. Ular qarluk-chigil va o'g'uz lahjalari vakillari bilan yonma-yon, aralash-quralash yashadi. Bora-bora bir qismi qarluk-chigil, bir qismi qipchoq, bir qismi o'g'uz lahjalrida so'zlashuvchi bir millat yuzaga keldi. 1924-yili aynan ana shu millatga rasman o'zbek deb nom berildi.

Bu hech qanaqasiga o'zbek millati aynan shu yili paydo bo'lganini anglatmaydi. Boshqacha aytganda, bir xalq bo'lib birikkan uch qavmdan birining nomi umumiy nom sifatida tanlandi, vassalom.

Bunday iddaolardan ko'zlangan maqsad nima? Xalqni parokanda qilish. Kamsitish. Oxir-oqibat shu tariqa uning istiqloqligini raxna solish. Bunga aslo yo'q bo'lmaydi.

Tarix guvohlik beradiki, mustamlakasidan ayrilgan yirik imperiyalar vakillari barcha zamonlarda ham o'zi yo'qotib qo'ygan avvalgi davrlarni qo'mshas his-tuyg'usini oshkor etadi. Qo'yib bersangiz, yana o'sha hududlarga ko'z olaytiradi.

Yo'q! Tarix orqaga qaytmaydi. Vatanni va uning istiqloqlini himoya qilish hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Bugun shu gapni qayta-qayta takrorlashimiz, buni har birimiz qalbimizga joylashimiz dardkor.

Yangi O'zbekistonda biz inson qadri ustuvor bo'lgan farovon jamiyat va iqtisodiyoti taraqqiy topgan davlatni barpo etishni maqsad qilganmiz. Ushbu ulug'vor g'oya asosida xalqimiz yangi islohotlarning muallifiga aylani bormoqda.

O'tgan qisqa davr mobaynida jamiyat hayoti, milliy iqtisodiyot, ilmu fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniy-ma'rifiy sohalar yangilandi. Tadbirkorlik butun mamlakatda keng quloq yozib, yangi mulkdorlar sinfi shakllandi. O'zbekiston taraqqiy topgan xorijiy davlatlar bilan bo'yilash boshladi, bundanda muhim o'zgarishlarni qamrab olgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq qilina boshladi.

Bugun biz murakkab va tahlikali zamonda yashayapmiz. Atrofqa qaragun, dunyoda nimalar bo'lyapti?! Bu esa bizdan oliy darajadagi hushyorlikni, ogohlilikni, kurashchanlikni talab qiladi. Binobarin, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil 22-dekabrda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz masalaga diqqat qaratib, bunday dedi: "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz boshada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolibshini istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi".

**Bahrom ABDUHALIMOV,**  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, tarix fanlari doktori, professor

## YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA

Dunyo aholisining 2 milliarddan ziyodi, ya'ni 25 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda esa yoshlar qatlami jami aholining qariyb 60 foiziga yaqin. Shuning uchun O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e'tirof etiladi. Yaqin o'n yilliklarda bu qatlam davlat va jamiyat boshqaruvida hal qiluvchi kuchga ega bo'lishini tasavvur qilsak, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish, muammolarini vaqtida hal etib, shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, professional kasb mahoratini shakllantirish kabi vazifalar nihoyatda dolzarb ekani oydinlashadi.

## YOSHLAR — YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI



Davlatimiz rahbari "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega", deb bejiz ta'kidlamaydi. Bu yondashuv "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham aksini topgan. Misol uchun, ushbu muhim hujjatning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogba chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalishi 44 banddan iborat bo'lsa, shuning 25 dan ortig'i bevosita yoshlar manfaatlariga qaratilgan.

Yoshlar siyosati sohasida qabul qilinayotgan reja va dasturlarimiz qanchalik jozibali va jarangdor bo'lmasin, ularning hayotga qay darajada keng tatbiq etilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, mas'ul davlat xizmatchilari ijro intizomiga qat'iy rioya etsa, har bir topshiriq va vazifaning ijrosini belgilangan muddatlarda, yuqori darajada ta'minlash, yoshlar manfaatini yo'lidagi islohotlar samarasini har bir yosh

o'z tanasida his etadi, bundan bahramand bo'ladi.

Bu borada Yoshlar ishlari agentligida Prezidentimizning farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining amalga oshirilishi bo'yicha nazorat va hisobdorlik tizimi mavjud. Xususan, har bir topshiriq ijrosi elektron tizim orqali nazoratga olinib, rahbar va mas'ul xodimlarning faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholab borish yo'liga qo'yildi.

Buning natijasida o'tgan yili agentlik tomonidan Prezidentimizning 11 ta farmonida belgilangan 40 ta, 34 ta qarorida belgilangan 162 ta, 2 ta farmoyishida belgilangan 24 ta, 18 ta yig'ilish bayonida belgilangan 65 ta topshiriq ijrosi sifatli tashkil etildi. Buning natijasida yoshlarimiz o'zlarini talpinayotgan ezuq maqsadlari yo'lida misli ko'rilmagun imtiyoz va imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Davomi 3-beta





## Inson qadri uchun

## IJTIMOIY XIZMAT KASBIY FAOLIYATGA AYLANSANA...

Ziyoda AKBARQULOVA,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi yetakchi mutaxassisi

**Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ushbu yo'nalishda xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha vazifalar belgilandi.**

Keyingi paytlarda jamiyatimizda ijtimoiy himoya tizimi degan gap keng qo'llanilmoqda, tez-tez quloqqa chalimoqda. Ammo bu tizim o'zi nima ekan, qanday ishlashi, maqsad-muddasida haqida hamma ham to'liq ma'lumotga ega, deya olmaymiz. Keling, shu o'rinda ijtimoiy himoya tizimining yo'lga qo'yilish tarixi, zarurati, afzallik tomonlari kabi jihatlariga to'xtalib o'tsak.

Bundan olti-yetti yil avval mamlakatimizga tashrif buyurgan 29 ta davlat delegatsiyasi a'zolari uchun poytaxtimizdagi mahallalardan birida "Mahalla nima?" degan seminar-trening tashkil etilgan edi. O'shanda aksariyat xorijliklarga oilalarni yaratish, bolalarni tarbiyalash kabi muhim masalalarda jamoatchilik faoliyati juda qiziqarli tuyulgandi.

Ular bizdan ajrashishga xayrixoh erkak va ayolni mahalla tomonidan "ajratmaslik"ning asosiy sabablari, tarbiyasi og'ir bolalarning tarbiyasiga ota-onasi bo'la turib, qo'shnilar, qarindoshlar, mahalla faollarining mas'ulligi kabi tushunchalarni izohlab berishimizni so'radi.

G'arbda kasbiy faoliyat sifatida shakllangan ijtimoiy xizmatning "odamgarchilik", "qo'shniçilik", "mahalladoshlik" kabi sharqona qadriyatlar negizidagi beminnat ko'rinishlari mehmonlarni hayron qoldirgani shubhasiz.

Keksalar, bemorlarning holidan beminnat xabar olish — savob, mahalladoshlar ta'бири bilan odamgarchilik deyiladi. Qo'shni bolani tartibga chaqirish — mahallaning yozilmagan qoidasi. U mahalla zamirida jamiyat osoyishtaligi va farzand tarbiyasi uchun xizmat qiladi. Ajrim yoqasidagi er-xotinini yaratish esa oilani, oilaviy qadriyatlarini saqlab qolish, shu oiladagi bolalarning boshiga tushishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy muammolar va ular tufayli yuzaga keladigan turli illatu jinoyatlarining oldini olish bilan bog'liq. Ushbu fidoyiliklar xalqimizning qon-qoniga singib ketishida, albatta, mahalla institutining o'rni beqiyos.

O'zbeklarning ota-onaga yuksak ehtiromda bo'lishi, bolajonligi dunyo xalqlari tomonidan yuqori baholanganiga tarixda misollar ko'p. Lekin tobora globallashib, mafkuraviy tahdidlar maydoni kengayayotgan bugungi axborot asrida ota-ona va farzand munosabatlari nisbatan e'tibor susaygani, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi ortib borayotgani tufayli onalarning oila va oilaviy qadriyatlar, bola tarbiyasiga mas'ulligi bo'yicha qator ijtimoiy muammolar yuzaga kelayotgani ham bor gap. Ayni paytda aholi, xususan, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat bozoriga talabi kun sayin ortayotganini inobatga olsak, mahalla institutida shakllangan aksariyat ijtimoiy xizmatlarni kasbiy faoliyat sifatida xorij tajribasi asosida ommalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlar nodavlat sektorida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlangan. Masalan, G'arb mamlakatlarida ijtimoiy masalalar yechimida ko'proq Bismark,

yuqori darajaga chiqqan. Nodavlat sektorning ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyati xususiy tadbirkorlar, kompaniyalar, biznes tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

1935-yili "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi AQSHda ijtimoiy siyosatni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qonun Prezident F.Ruzveltning 1929-1932-yillardagi "buyuk depressiya"ga qarshi, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikka barham berishda aholini minimal darajada qo'llab-quvvatlash va shu orqali davlatning ijtimoiy sohani to'liq o'z qo'lga olish bo'yicha "yangi siyosati" edi.

Amerika modeli bo'yicha davlat moliyaviy mablag'lari hisobidan nodavlat sektorni ijtimoiy xizmatlar sohasiga kengroq jalb qiladi. Buni aholining ijtimoiy sug'urta qilinishi muhimligi, ijtimoiy xizmatlar sohasining markazlashtirilmasligi, sohada kichik mahalliy va xalqaro yirik nodavlat tashkilotlarning roli kattaligida ko'rish mumkin.

Daniyaning ijtimoiy ta'minot tizimi davlatga to'lanadigan soliqning asosiy qismi — xususiy sektor va boshqa manbalardan kelib tushadigan mablag'lar orqali moliyalashtiriladi.

Bu mamlakatda ijtimoiy xizmatlar nodavlat tashkilotlar tomonidan boquvchisini yo'qotgan keksalar, nogironlar, nafaqaxo'rlarga, aqliy, jismoniy nogiron bo'lgan fuqarolarga,



nosog'lom oilalarning farzandlari va boshqalarga ko'rsatiladi. 1976-yilda "Ijtimoiy yordam akti" asosida amalga oshirila boshlagan qonun Daniya milliy qonunchiligini rivojlantirishga asos bo'lib kelmoqda.

1992-yilda daniyalik yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy sohaga nodavlat tashkilotlarni jalb qilish, ko'ngillilar harakatini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal etishda fuqarolar faolligini oshirishga xizmat qiladigan "O'nluk komiteti" tuzildi. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini hukumat organlari hududiy birliklarga bo'lingan holda amalga oshiradi hamda mahalliy davlat organlari ijtimoiy xizmatlar yetkazib berilishi, sifati, qabul qilingan standartlarga mos



Anglo-sakson modellari tayaniladi. Ijtimoiy xizmatlarni aholiga taklif etishda nodavlat sektor, xususiy sektor, biznes tuzilmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar yetakchilik qiladi.

AQSH modelida aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat organlarining ishtiroki minimal darajaga tushirilib, nodavlat sektor faoliyati

kelishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, haq to'lanadigan ijtimoiy xizmatlar bozorini ham muvofiqlashtiradi.

Ijtimoiy xizmatlarda Germaniya modelining o'ziga xosligi — bunday xizmatlar ijtimoiy pedagogika bilan bir vaqtda amalga oshirilishida ko'rinadi.



**Xorijiy tajribadan kelib chiqadigan bo'lsak, Budapeshtning sayyor oshxona loyihasida korxonalar va tashkilotlar negizida nisbatan arzon, sifatli, "o'quvchi", "talaba" paketlarini o'z ichiga olgan oshxona xizmati, "maktab — ota-ona — mahalla" zanjiri negizida Germaniyaning ijtimoiy pedagogika xizmatini, maktabgacha ta'limda bolalar parvarishi sifatini oshirishda enagalik xizmatini, keksalar va nuroniyalarga alohida parvarish ko'rsatuvchi ijtimoiy xodim va hamshira xizmatlarini kasbiy faoliyat darajasiga olib chiqish ko'plab ijtimoiy sohadagi muammolarni hal etishda asqotishi mumkin.**

Bugun jamiyatimizda "Maktab — ota-ona — mahalla" zanjiri negizida ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksizligini ta'minlashda ijtimoiy pedagogika xizmatining aynan Germaniya modeli qo'l kelishi shubhasiz.

Mamlakatda XVIII asrda tashkil etilgan ko'ngilli "fuqaroviy hamshiralari" faoliyati

Yuqori malakali ijtimoiy xizmat sohasi mutaxassislarining bolalar bog'chalari, internat, kasalxonalar va boshqa ijtimoiy muassasalarda faoliyat yuritishi katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Nodavlat sektor ijtimoiy xizmatlar turining yangi shakllarini ishlab chiqishda faollik ko'rsatayti.

Nodavlat sektorning ijtimoiy xizmatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida Fransiya yetakchilik qiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda fuqarolar faolligi muhim jihat hisoblanadi. Nodavlat sektor vakillari mamlakat aholisiga fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlikni rivojlantirish kabi sohalarda eng ko'p ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

Ijtimoiy ish nafaqat aholining ish bilan bandligini ta'minlashga, balki aholi orasidagi

munosabatlarni yaxshilash, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida o'zaro ko'maklashishga, turmush farovonligini oshirish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan maqsadlar ostidagi xizmatlarni oliy darajaga olib chiquvchi kasbiy faoliyat hamdir. Xorij mamlakatlaridagi ijtimoiy xizmat sohalarni o'rganar ekanmiz, soha faoliyati orqali ularning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy madaniyati, saviyasi mentaliteti bilan uzviy bog'langanligini guvohi bo'lamiz.

Xorijiy tajribadan kelib chiqadigan bo'lsak, Budapeshtning sayyor oshxona loyihasida korxonalar va tashkilotlar negizida nisbatan arzon, sifatli, "o'quvchi", "talaba" paketlarini o'z ichiga olgan oshxona xizmati, "maktab — ota-ona — mahalla" zanjiri negizida Germaniyaning ijtimoiy pedagogika xizmatini, maktabgacha ta'limda bolalar parvarishi sifatini oshirishda enagalik xizmatini, keksalar va nuroniyalarga alohida parvarish ko'rsatuvchi ijtimoiy xodim va hamshira xizmatlarini kasbiy faoliyat darajasiga olib chiqish ko'plab ijtimoiy sohadagi muammolarni hal etishda asqotishi mumkin.

Bolajigimizdan "Sandiqchilar", "Beshikchilar", "Ko'nchilar", "Pichoqchilar" mahallalari haqida eshitib ulg'aydik. Bugun o'sha mahallalarda yetishgan ustalarini dunyo taniydi. Mahalla kesimida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarimiz mavjud. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish kasbiy faoliyatga aylanishida xorij tajribasini kuzatib ekanmiz, ushbu faoliyat ham, aslida, mahallalarimiz, ularning qadimiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekaniga guvoh bo'lamiz.

Ijtimoiy xizmatlarning xorijiy modullari kasbiy faoliyatga aylanguna qadar talab va ehtiyoj sifatida, videoselektor yig'ilishda ta'kidlanganidek, odamlarning ichiga kirish va boshidan o'tkazish jarayonida yuzaga kelganini kuzatamiz.

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy soha xodimlari kasbiy malakasi va toifasini oshirish uchun harakat qilayotgan bir paytda qo'shniçilik, qarindosh-urug'chilik, mahalladoshlik qadriyatlaridan suv ichib ulg'aygan, mehr-muruvvat asosida beminnat saxovat ko'rsatishni ota-bobosidan meros qilib olgan xalqimiz uchun ijtimoiy xizmatni nafaqat kasbiy faoliyat, balki oliy insoniy burchga aylantirish uchun mahalla misolida ko'nikma va tajribalar bisyor.

Qolaversa, bugun xorijida mazkur yo'nalishda mehnat qilayotgan aksariyat yurtidoshlarimizni kasbiy faoliyat egasi sifatida diplom bilan ta'minlab, bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun dunyo mehnat bozorida arzon ishchi kuchi sifatida qaralishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Xorij tajribasini mahalla maktabi bilan uyg'unlashtirish mazkur faoliyatning betakror o'zbekona modelini yaratishga asos bo'lishi mumkin. Ijtimoiy xizmat sohasining kasbiy faoliyatga aylanishi xorij tajribasiga asosan bugungi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasiga soya solayotgan, ishsizlik ko'lamini bevosita kengaytirayotgan boqimandalik kayfiyatiga chek qo'yadi. Shuningdek, ushbu sa'y-harakat yosh avlod o'rtasida turli insoniy fazilatlarini shakllantirish va yuksaltirish, mahalla hayotidagi o'rni orqali yurt taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usi, chinakam vatanparvarligini kuchaytirishga zamin yaratadi.

## Xalqaro hamkorlik

Ayni paytda boy madaniy merosimiz, milliy hunarmandchilik, gastronomik turizm imkoniyatlarimizning dunyoga tarannum etilayotgani ko'plab davlatlar bilan o'zaro do'stlik aloqalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani rost. Joriy yilning 20-26-fevral kunlari Qatar poytaxti Doha shahrida o'tkazilgan "O'zbekiston madaniyati, hunarmandchiligi va turizmi haftaligi" tadbirlari buni yana bir karra isbotladi.

**"DARB AL-SAAY" DA BIRINCHI XORIJIY TADBIR****DOHA SHAHRIDA "O'ZBEKISTON MADANIYATI, HUNARMANDCHILIGI VA TURIZMI HAFTALIGI" YAKUNLANDI**

Prezidentimizning o'tgan yil oktabr oyida Qatar davlatiga tashrifi davomida davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarini mustahkamlashga, Doha shahrida O'zbekiston madaniyati kunlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgandi.

Tadbir doirasidagi maydon tomoshalari, hunarmandchilik va gastronomik ko'rgazma tomoshasidan so'ng maydonda tashkil etilgan sahna o'zbek san'at ustalari ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi. Badiiy dasturlardan Yunus Rajabiy nomidagi



"Darb al-Saay" madaniyat maydonida ochilgan haftalikda O'zbekiston va Qatar madaniyat vazirlari so'zga chiqdi. Shuningdek, vazirlar o'rtasida alohida uchrashuvlar tashkil etildiki, buni O'zbekiston madaniyat vaziri shunday izohladi:

— Safar davomida Qatar madaniyat vaziri bilan o'zaro fikr almashdik, O'zbekistonda madaniyat sohasida olib borilayotgan siyosat ushbu mamlakatdagi ayni siyosat bilan hamohang ekanidan quvondik. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, qadim san'atimiz, madaniyatimiz salmog'ini qatqillarlik ham yuksak e'tirof etyapti. Qatar davlati madaniyat vaziri ham ushbu madaniy tadbiring katta muvaffaqiyat

maqom ansamblling chiqishlari katta o'rini oldi.

— Bu juda yorqin va ajoyib bo'ldi. Albatta, bunday namoyishlardan keyin har qanday sayyohda O'zbekistonga tashrif buyurish istagi paydo bo'ladi. Biz bunga umid qilamiz, — dedi sayyohlardan biri Salih Basaleh.

Yana bir sayyoh Aygul Nukusheva tez orada Samarqand, Buxoro va Toshkentga sayohat qilishi, zero, bu shaharlar haqida ko'p eshitgani, ayni shaharlarda bo'lganlarning ijobiy taassurotlarini saqlab bilan tinglaganini aytdi. Qolaversa, sayyoh o'tgan yili Parijdagi ko'rgazmada bo'lib, Samarqand tarixi va me'moriy merosi haqida ko'p narsalarni bilib olganini qo'shimcha qildi.



bilan o'tayotganidan xursandligini ta'kidladi. Shuningdek, vazir ikki davlat o'rtasida madaniy diplomatiyani rivojlantirish bo'yicha kelishuvlar borligi va bu Qatardan boshlangani, nasib etsa, madaniy do'stlik uzoq davom etishiga umid bildirdi.

Ochilish marosimida O'zbekistonning rang-barang madaniy landshafti, jumladan, maqom va baxshichilik san'ati kabi nomoddiy madaniy meros namoyishi, zargarlik, xattotlik, milliy musiqa asboblari, miniatyura va badiiy, dekorativ hamda amaliy san'ati yo'nalishlaridagi, shuningdek, gastronomik ko'rgazmalar tashkil etildi.

Shu o'rinda, quvonarli bir jihat. "Darb al-Saay" madaniyat maydonida shu paytgacha faqatgina Qatar milliy kuni nishonlangan. Mazkur maydonda birinchi marotaba o'tkazilgan xorijiy tadbir O'zbekistonning ishtiroki delegatsiyamiz vakillari qalbiga unutilmas xotiralarni muhrladi.

— Qatar Amirining o'zbek xalqiga, Prezidentimizga bo'lgan cheksiz hurmatini ko'rib, juda quvondim. Biz uchun barcha imkoniyatlar yaratib berildi. Hunarmandlarimiz, naqqoshlarimiz, xattotlar zargarlarimiz o'z mahsulotlarini targ'ib etishi uchun maydonda alohida hozirlik ko'rilgan. Folklor jamoalarimiz, qo'g'irchoq ustalari, maqom, baxshichilik, juda chiroyli raqslarimiz ixtiro etildi, — dedi Madaniyat vazirligi boshqarma boshlig'i Bahrom Usmonov.

Jahongashta Shahriy Bagxeri esa bundan rosa bir yil avval O'zbekistonga tashrif buyurganida yurtimizning ajoyib madaniyat, tarix va an'analarga ega ekaniga guvoh bo'lgani haqida gapirdi. Qatarga sayohat chog'i O'zbekiston madaniyati kunlari ustidan chiqqanidan o'zini nihoyatda omadli hisoblagan sayyoh bizni yana bir muvaffaqiyat bilan tabrikladi.

Darhaqiqat, milliy san'atimiz, madaniyatimizning arab xalqlariga manzur bo'lgani, hunarmandchilik mahsulotlarimiz ekologik toza, qo'l mehnati bo'lgani uchunagina emas, dunyo tanigan allomalar xurridan kelgani tufayli ham yuksak qadrlangan barchamiz uchun sharaf, albatta.

O'zbek taomlarini tatib ko'rgan har bir sayyoh va qatrlilik, albatta, O'zbekistonga bir bor kelishni niyat qilgani aniq. Tadbir haqida umumiy qilib aytish mumkinki, haftalik ochilgan kundan yopilgunga qadar majmuaga tashrif buyurgan dohaliklar va chet elik sayyohlar o'zini go'yo mamlakatimizga kelib qolgandek his qildi.

"U-VENUE" yopiç san'at saroyida bo'lib o'tgan haftalikning yopilish marosimida ham milliy va mumtoz kuy-qo'shiqlardan iborat konsert dasturlarimiz mahalliy aholi va sayyohlar ko'ngliga zavq ulashdi.

Munojat MO'MINOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda



# YOSHLAR – YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI



**Alisher SA'DULLAYEV,**  
Yoshlar ishlari agentligi  
direktori

Boshlanishi 1-betda

## Yoshlar nimani xohlaydi?

Xo'sh, bugun yoshlarimiz davlatdan nimani xohlamoqda? Albatta, ular o'z ijodiy va intellektual salohiyatini hech qanday to'siqlarsiz ro'yog'ga chiqarish uchun erkin va qulay shart-sharoitlarni, teng imkoniyatlar va kelajak uchun mustahkam kafolatlarni istaydi.

Ayni paytda yoshlarga oid davlat siyosati to'liq ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan. Yosh avlodga huquqiy kafolatlarni yaratishdan tortib, sifatli bilim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, shaxs sifatida kamol topishi, qo'yingki, mehnat qilib, farovon kelajagini bunyod etishi uchun barcha imkoniyatlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, o'tgan 2023-yilda yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, manfaatlarini ta'minlash sohasida yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilgan edi. O'tgan vaqt davomida amalga oshirilgan ishlar ayni shu vazifalar ijrosiga qaratilgan, desam adashmayman.

Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar bilan ishlash borasidagi muammolarga samarali yechimlar topish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilgan edi. O'tgan vaqt davomida amalga oshirilgan ishlar ayni shu vazifalar ijrosiga qaratilgan, desam adashmayman.

## "Yoshlar balansi"

Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari yildan-yilga takomillashib, yangi va samarador yo'nalishlarda davom ettirilmoqda. Hamma o'g'il-qizlarimiz uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2023-yilda "Yoshlar balansi" asosida yoshlarimiz uchta — "yaxshi", "o'rta" va "og'ir" toifalarga ajratib olindi. "Og'ir" toifadagi ishsiz, davlatning e'tibori va g'amxo'rligiga muhtoj 400 mingga yaqin yoshga keng ko'lami yordamlar ko'rsatildi. Xususan, ular 133 nafar vazir va o'rinbosariga, 6622 nafar hokim, sektor va tashkilot rahbariga biriktirildi. Shu asosda rahbarlarning "og'ir" toifadagi yoshlar bilan uchrashuvini tashkil qilish grafik rejasini ishlab chiqildi.

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan 208 ta tuman (shahar), 832 ta sektor, 9448 ta mahallada yoshlar bilan ishlash holati birma-bir o'rganildi. Amaliy choralar natijasida "og'ir" toifadagi 146 ming yosh "yaxshi" toifaga o'tkazildi.

Jumladan, muammosi aniqlangan 185 ming yoshning 181 mingta (98 foiz) masalasi hal etildi. Ulardan 51 379 nafarining bandligi ta'minlandi, 30 847 nafariga moddiy yordam berildi, 31 910 nafari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, davolandi, 66 816 nafarining turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalari hal etildi.

Yoshlar yetakchisi va biriktirilgan mas'ul rahbar kafiligi asosida xulq-avrori joriyotomonga o'zgaragan, probatsiya nazoratida turuvchi 6293

(45 foiz) hamda profilaktika nazoratida turuvchi 13 567 (61 foiz) yosh muddatidan oldin hisobdan chiqarildi. Muntazam dars qoldiruvchi 5552 (60 foiz) yosh ta'limga, narkotik va psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchi 166 (20 foiz) yosh sog'lom turmush tarziga qaytarilgan bo'lsa, 5204 ta (81 foiz) notinch oilada ijobiy muhit barqarorlashtirildi.

Xorijiy migratsiyadan qaytgan 18 148 (29 foiz) yosh ish bilan ta'minlandi. Ajralish yoqasidagi 3791 ta (51 foiz) yosh oila yaratirildi. Nogironligi bo'lgan yoshlarning 25 709 nafari davolatildi, 2644 nafari nogironlik reabilitatsiya texnik anjomlari bilan, 13 395 nafari ish bilan ta'minlandi.

Yoshlar yetakchilari xonadon-xonadon xatlov o'tkazib, xorijdagi 268 ming yosh balansi shakllantirdi va ular bilan doimiy muloqot o'rnatdi. Mehnat migratsiyasi orqali 11 335 yosh yuqori daromadli ish o'rinlariga joylashtirildi. Xorijiy mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida 54 075 gektar, jumladan, bog'zor (16485 ga), tokzor (6840,4 ga), zaxira (3066 ga) va lalmi (27 684,4 ga) yer o'rganilib, 1605,9 gektari ajratib berildi.

"Qo'qon shahri tajribasi" asosida jinoyat sodir etishga moyil 50 506 yosh aniqlanib, ular bilan manzilli ishlash bo'yicha "harakalar rejasini" amalga oshirildi. Ularning 3860 nafari "Jasorat maktabi" harbiy-o'quv yig'iniga, 2860 nafari "Vatanparvar" tarbiya oromogiga jalb etildi hamda ularda vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ulari shakllantirildi. Uyushmagan yoshlarning 7605 nafari harbiy xizmat badal puli to'lab berildi va ular mahallalardagi "Qalqon" jamoatchilik guruhlariga jalb qilindi.

Yoshlarni harbiy-sport o'yinlari orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Amir Temur izdoshlari" harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi o'tkazilib, tanlovlar doirasida jami 1,2 million yosh qamrab olindi. Yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus o'quv moduli ishlab chiqilib, IIV akademiyasida 180 nafar trener tayyorlandi. Ular tomonidan "mahalla beshligi"ning 47 634 vakili kaskad usulida o'qitildi.

Buning natijasida 3286 ta mahallada birorta ishsiz yosh qolmagani, 2831 ta mahallada yoshlar ishtirokida umuman jinoyat sodir etilmagani tizimida ulkan jamoaning mehnati mahsulidir.

## "Yoshlar daftari" — imkoniyatlar daftari

Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiroq bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini yuritish bo'yicha ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasi — "Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqardi.

Yoshlar yetakchilari tavsiyasi bilan 338 ming yigit-qizga 444 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Xususan, talabalarning shartnoma puli to'landi, xorijiy tillar va zamonaviy



kasblarga o'qitish xarajatlarini qoplab berildi. Ihsiz yoshlarga mehnat qurollari ajratildi. Bugunga kelib, ko'rsatilgan yordamlar natijasida yoshlar tadbirkorlik, dehqonchilik va biznes bilan shug'ullanmoqda.

Har bir mahallada "fuqarobay" tasdiqlangan "Yoshlar bandligi dasturi" amalga oshirildi. 2023-yilning o'zida ishsiz 236 120 yosh, 189 085 maktab bitiruvchisining bandligi ta'minlandi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 150 ming yoshga 3,2 trillion so'm imtiyozli kredit, 163 ming yoshga 67 ming gektar ekin maydoni ajratildi. 662 ming nafariga o'zini o'zi band qilishga ko'maklashildi, 56 ming nafari kasb-hunarga o'qitilib, bandligi ta'minlandi.



## "Besh tashabbus olimpiadasi"

2023-yildan boshlab "Besh tashabbus olimpiadasi"ni 4 ta yo'nalishda, mahalla, maktab, professional ta'lim va oliy o'quv yurtlarida o'tkazish yo'lga qo'yilib, jami 11,7 million, ya'ni 2022-yildagiga nisbatan 5,5 million ko'p yosh qamrab olindi. G'olib yoshlarning mahallalarida 623 ta sport maydonchasi qurib



berildi. Ilk marotaba tashkil etilgan "Kasblar tanlovi" (oshpazlik, tikuvchilik, hunarmandlik, qandolatchilik, erkaklar sartaroshligi yo'nalishlari bo'yicha) musobaqalari juda ko'plab yoshlarni birlashtirdi.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda iqtidorli 4500 dan ortiq yosh ishtirokida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Shahrisabz kabi tarixiy va diqqatga sazovor shaharlarga "Inklyuziv O'zbekiston" shiori

2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-fevraldagi "Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va qobiliyatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2024-yilgi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish" to'g'risidagi 28-bayoni ijrosini ta'minlash yuzasidan joriy yilgi musobaqalarni



o'tkazish kalendar-rejasi ishlab chiqilib, targ'ibot qilindi, musobaqalarda qatnashish uchun talabgor yoshlar ro'yxatga olindi.

## Yilning eng yirik loyihalari

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkentdagi Yoshlar ijod saroyida kreativ park foydalanishga topshirildi. Saroyning birinchi qavatida 150 o'rinni "Ijod"

intellektual klubi uchun alohida bino hamda intellektual o'yinlar shaharchasi barpo etildi. Respublika miqyosida "Zakavat" intellektual o'yini, kubik-rubik, mental arifmetika, mnemonika kabi o'yinlar tashkil etilib, aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatlarga aylantirildi. "Zakavat" va boshqa intellektual o'yinlarga 2 million yosh jalb etilib, "Qarshi shahri — 2024-yilda intellektual hudud" deb e'lon qilindi.

Vikipediya internet tarmog'ida o'zbek tilida yaratilgan maqolalar soni 239 mingga yetkazilib, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 45-o'ringa ko'tarildi. Chet tillarni o'rganish bo'yicha 18 ta xalqaro imtihon tizimida 70 foizdan yuqori natija ko'rsatgan 12 359 yoshga 21,7 milliard so'mlik imtihon xarajatlarini qoplab berildi. Yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantirish maqsadida "Zukko kitobxon", "Bilim uchun 100 million" loyihalari amalga oshirildi.

Ajdodlar merosini o'rganish maqsadida "Uyg'onish" ruhi o'stada ilk Uyg'onish davri allomalari va ularning ilmiy merosi xususida so'z yurituvchi 7 ta kitobdan iborat to'plam chop etildi. Kitoblarni matni ilk Uyg'onish davri olimlari hayoti, faoliyati va ijodi bilan bog'liq ilmiy manbalar asosida bir necha oliy o'quv yurtlarining yetuk olimlari tomonidan shakllantirildi hamda nashrga tayyorlandi.

Ayni paytda Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrda "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, eng sara ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etish bo'yicha "1000 kitob" loyihasi ustida amaliy ishlar boshlandi. Jumladan, dastlabki 10 ta kitob bo'yicha mualliflik huquqini olish yuzasidan shartnomalar imzolandi.

## Yoshlar yetakchilari faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda

Respublikamizdagi 9448 ta mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muntazam qo'llab-quvvatlash, uslubiy-metodik yordam ko'rsatish doimiy ravishda e'tibor markazida turibdi. 2023-yil may oyida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi yoshlar oromogida "Yoshlar bilan individual ishlash tizimi" bo'yicha respublika o'quv seminarini tashkil etilib, "Yoshlar bilan individual ishlashni tashkil etish bo'yicha" uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va barcha yoshlar yetakchilariga tarqatildi. Bundan tashqari:

— yoshlar yetakchilari uchun "7+2" eng muhim vazifalarni o'z ichiga olgan 2 ta videodastur ishlab chiqildi;

— yoshlar yetakchilarining faoliyatiga oid barcha statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "Yon daftarcha" ishlab chiqilib, yetakchilarga tarqatildi;

— yoshlar yetakchilarining faoliyati yo'nalishlarini belgilaydigan haftalik ish reja va uning hisobotini olish tizimi yo'lga qo'yildi;

— faol ishlayotgan yetakchilarning 4 nafari Turkiya va 7 nafari Rossiyaga stajirovkaga yuborildi;

— oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limga o'qishga qabul qilingan, 474 nafar yoshlar yetakchisining 2-semestr kontrakti uchun 3 milliard 159 ming so'm to'lab berildi;

— "Yilning eng namunali mahalla yetakchisi" respublika tanlovi o'tkazildi.

2023-yildan boshlab "Besh tashabbus olimpiadasi"ni 4 ta yo'nalishda, mahalla, maktab, professional ta'lim va oliy o'quv yurtlarida o'tkazish yo'lga qo'yilib, jami 11,7 million, ya'ni 2022-yildagiga nisbatan 5,5 million ko'p yosh qamrab olindi. G'olib yoshlarning mahallalarida 623 ta sport maydonchasi qurib berildi.

ostida bepul sayohatlar tashkil etish uchun 2,3 milliard so'm ajratildi. Bugunga qadar 17 marotaba sayohat uyushtirilib, nogironligi bo'lgan jami 3500 dan ortiq yosh jalb etildi.

Shuningdek, 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan yoshlar oyligida 5 million nafardan ortiq yosh qamrab olindi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi topshiriqlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, "Besh tashabbus olimpiadasi" har yili ikki mavsumda sport, madaniyat va san'at, kitobxonlik, kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha keng qamrovda o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, Prezidentimizning

2022-yil 20-yanvardagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Zakavat"

O'tgan yil dekabr oyida — "Yoshlar forumi" doirasida yoshlar va rahbarlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash maqsadida barcha vazirlik va idoralarda yuz minglab yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ko'plab muammolarga yechim topildi.

2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinganini hisobga olsak, bu yil yoshlar manfaatlarini ta'minlashga yanada keng ko'lami yondashiladi.

Shubhasiz, yoshlar — davlat va jamiyatning hal qiluvchi kuchi. Biznes va tadbirkorlik esa zamonaviy iqtisodiyotimizning asosini tashkil qiladi. Joriy yilning ana shunday nomlanishi yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, tashabbuslarini ro'yog'ga chiqarish, bandligini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilishidan dalolatdir.

Jumladan, bu yil yurtimizda 5 million aholi bandligini ta'minlash bo'yicha alohida dastur qabul qilindi. Davlatimiz rahbari qat'iy ta'kidlaganidek, "kambag'allikni keskin kamaytirish uchun odamlarimizga doimiy daromad keltiradigan ish o'rinlarini yaratish zarur".

2024-yilda yigit-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi. Biznes va tadbirkorlik qilish istagidagi fuqarolarga, ayniqsa, tadbirkor yoshlarga yanada keng imkoniyat va imtiyozlar taqdim etiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu yil yurtimizdagi 19 milliondan ortiq yosh uchun ulkan imkoniyat yili bo'ladi. Biznes va tadbirkorlik uchun keng sharoit yaratish, ilm-fan, innovatsiya, axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishga katta e'tibor qaratiladi. Yoshlarning ilg'or g'oya va tashabbuslari, intilishlari yanada rag'batlantiriladi.

Shuningdek, yoshlar orasida katta qiziqish bilan kutib olingan "Ibrat farzandlari" loyihasi orqali chet tillarni o'rganayotgan yoshlarni 1 million nafarga, kitobsevarlarning "Mutolaa" dasturi orqali yosh kitobxonlarni 1,5 million nafarga yetkazish choralarini ko'riladi. Buning uchun hududlarda qo'shimcha infratuzilma barpo etilib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va iste'dodini ro'yog'ga chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratiladi.

Biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham keng ko'lami ishlar rejalashtirilgan. Bu ishlarimiz debochasi o'laroq, tadbirkorlikni boshlamog'chi bo'lgan qizlarni o'qitish uchun maxsus grant e'lon qilindi. Bunda ikki oy davomida 50 nafar qiz ilk bosqichdan biznes boshlashning amaliy usullarini 10 nafar tajribali ekspertdan bepul o'rganadi. Loyihaning birinchi bosqichida 18-30 yosh oraliqida bo'lgan, Toshkent shahrida yashaydigan yoki yashash imkoniga ega nomzodlar ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu yil yurtimizdagi 19 milliondan ortiq yosh uchun ulkan imkoniyat yili bo'ladi. Biznes va tadbirkorlik uchun keng sharoit yaratish, ilm-fan, innovatsiya, axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishga katta e'tibor qaratiladi. Yoshlarning ilg'or g'oya va tashabbuslari, intilishlari yanada rag'batlantiriladi.

Shu bois, Yoshlar ishlari agentligining mahalladan respublikagacha bo'lgan vertikal tizimidagi barcha rahbar va mas'ul xodimlari, yoshlar yetakchilari "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan har bir topshiriq va vazifalarning ijrosini yuqori saviyada ta'minlash uchun to'la safarbar qilindi.

Bu borada 2023-yil 21-noyabr kuni ijro intizomi masalalarini bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan quyidagi talablar topshiriqlari ijrosi bo'yicha yakuniy natijadorlikka erishishning mustahkam poydevoiri hisoblanadi:

- birinchisi — tizim yaratish;
- ikkinchisi — tartib o'rnatish;
- uchinchisi — temir intizomni ta'minlash;
- to'rtinchisi — rahbarlar va boshqaruv tizimi xodimlarining dunyoqarashini keskin o'zgartirish.





## Dolzarb mavzu

## BUDJETGA TUSHMAGAN MABLAG'LAR

## Bunga nimalar qilish mumkin edi?

Prezidentimiz joriy yil 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida yashirin iqtisodiyot masalasiga e'tibor qaratib, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ekanini alohida ta'kidlagandi. Xizmatlar, qurilish, sanoat sohalarda katta miqdordagi aylanma "soya"da qolayotgani, yashirin iqtisodiyot adolatli raqobatga, halol tadbirkorlar faoliyatiga to'siq bo'layotgani, shuning uchun bu borada qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini qayd etgandi.

iqtisodiyotga nisbatan salkam 59 foizgacha ko'payishiga olib keldi. Lekin keyingi yillarda muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar soni sezilarli darajada ko'payishi bilan

naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashishi, shuningdek, soliq islohotlari yashirin iqtisodiyot hajmining 2018-yildagi 55 foizdan 2021-yilda 42 foizgacha kamayishiga xizmat qildi.

(aholi qo'lida qolgan miqdor — 5,6 milliard dollar). Ushbu ko'rsatkichlar 2022-yilda mos ravishda 16,9 milliard dollar, 11,9 milliard

— maktablarda qo'shimcha 2,1 million o'quvchi o'rni yaratish;  
— shifoxonalarda qo'shimcha 10 mingta yotoq o'rni tashkil qilish;  
— 50 ta tez yordam avtomobilini sotib olish;  
— bir yil davomida 293 ming shifokorning oylik maoshini to'lab berish imkoniyati yaratilgan bo'ldi.

Ayni paytda yurtimizda qazatilayotgan yuqori tug'ilish ko'rsatkichi kuzatib kelajakda ijtimoiy soha obyektlariga ehtiyoj ortishidan dalolat beradi. Bu maktablarda qo'shimcha o'quvchi o'rinlarini va shifoxonalarda yotoq o'rinlarini tashkil etishni talab qiladi. Kutilayotgan prognozlariga ko'ra, 2030-yilgacha har yili shifoxonalardagi yotoq o'rini 3700 taga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yashirin iqtisodiyotning salbiy ta'sirini kamaytirishda budgetlashtirish jarayonlarida shaffoflik, bevosita ishtirok etish hamda ijtimoiy mas'uliyatning ham o'rni bo'lakcha. Soliqlar nimaga sarflanishini doimiy eslatib borish aholi orasida soliq to'lash madaniyatini ommalashtirish hamda ijtimoiy mas'uliyatni oshirish hissa qo'shadi. Budget xarajatlarini, soliq to'lovlarini bo'yicha samarali muloqot davlat va tashkiliy jarayonlarda shaffoflik, hisobdorlik hamda jamoatchilik ishonchini oshirish uchun juda muhimdir. Fuqarolarni budgetni taqsimlash bo'yicha qarorlar qabul qilishga tortuvchi "Tashabbusli budget" jarayonini samarali usullardan biri sifatida baholash bo'ladi.

Bugun O'zbekiston global iqtisodiyotning bir qismi. Mamlakatimizdagi islohotlardan ko'zlangan maqsad dunyo iqtisodiyotida munosib o'rin egallashdir. Bunda yashirin iqtisodiyotning oldini olish muhim o'rin tutadi.

**Dostonbek JALILOV,**  
**Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimi,**  
**Muhabbat AHMEDOVA,**  
**loyiha rahbari**

Chindan ham yashirin iqtisodiyot taraqqiyotga ulkan g'ov. Uni cheklash esa rivojlanishga rag'bat. Shu bois, yurtimizda yashirin iqtisodiyot hajmini pasaytirish, tadbirkorlik uchun qulay muhit va teng raqobat yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini raqamlashtirish kabilarga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas.


O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish doimo dolzarb masalalar qatorida bo'lib kelgan. Yashirin iqtisodiyot o'z tabiatiga ko'ra, rasmiy statistikalarda ko'rsatilmaydigan va davlat nazoratidan chetda qoladigan iqtisodiy faoliyatlar yig'indisidir. Ushbu iqtisodiyot ko'lamini nafaqat soliq bazasi qisqarishiga, balki ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy noaniqlikning ortishiga ham olib keladi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarda o'rganishlar, tadqiqotlar olib boradi. Jamoamizning galdagi o'rganishi yashirin iqtisodiyotga bag'ishlandi. Bunda Gutmanning monetar usuliga tayanildi. Bu usul yashirin iqtisodiyotni baholashda naqd pul talabiga yondashadi. Naqd pul usullari Kagan, Gutman va Tanzi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu alohida yondashuv iqtisodchilar orasida bir necha ko'rsatkichli turli sabablar yoki elektr energiyasi iste'moli kabi boshqa usullar bilan birgalikda tahlil qilinadi. O'tgan yillar davomida bu yondashuv, asosan, rivojlangan mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyotni baholashda keng qo'llanilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2005-2022-yillarda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi

31 foizdan 53 foizgacha yetgan. 2017-yilda keng ko'lamli islohotlar doirasida pul-kredit va valyuta siyosatining erkinlashtirilishi natijasida naqd pul hamda valyuta oldi-sotdisi bilan bog'liq muammolar bartaraf etildi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda naqd pul hajmi ortishiga ta'sir qilib, yashirin iqtisodiyot ko'lamini rasmiy

Yashirin iqtisodiyot o'z tabiatiga ko'ra, rasmiy statistikalarda ko'rsatilmaydigan va davlat nazoratidan chetda qoladigan iqtisodiy faoliyatlar yig'indisidir. Ushbu iqtisodiyot ko'lamini nafaqat soliq bazasi qisqarishiga, balki ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy noaniqlikning ortishiga ham olib keladi.



Naqd pul va dollarlashuv darajasi ham yashirin iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni 2022-yilda O'zbekistonga pul o'tkazmalarining keskin oshib ketishi iqtisodiyotda naqd pul massasi ko'payishiga olib keldi. Muomaladagi naqd pul massasining o'rtacha miqdori 2021-yildagiga nisbatan 43,5 foiz oshishi natijasida yashirin iqtisodiyot hajmi 53 foizgacha ko'paydi.

Iqtisodiyotda dollarlashuv darajasi yuqoriligi saqlanib qolayotgan sharoitda milliy valyuta bilan birgalikda naqd chet el valyutalaridan (AQSH dollari va yevro) ham almashuv vositasi sifatida foydalanilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamining YIMga nisbatan 50 foiz atrofida saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan chet el valyutasi hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, xalqaro pul o'tkazmalari orqali kelib tushgan valyutalarning katta qismi aholi qo'lida saqlanib qolmoqda.

2021-yilda pul o'tkazmalari hajmi 8,1 milliard AQSH dollariga yetgan bo'lsa, aholidan sotib olingan valyuta hajmi 7,1 milliard dollarni va aholiga sotilgan valyuta miqdori 4,6 milliard dollarni tashkil etgan

dollar va 8,9 milliard dollar (aholi qo'lida qolgan miqdor 14 milliard dollar) bo'lgan.

Bulardan ko'rinadiki, iqtisodiyotdagi naqd chet el valyutasi miqdori yildan-yilga ortyapti. Yashirin iqtisodiyotda uy-joy oldi-sotdi amaliyotlari, avtomobil, maishiy va elektron texnika savdolarining katta qismi, hatto ayrim oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji savdosi chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, yashirin iqtisodiyotning hech kimga va hech bir sohaga foydasi yo'q. Aksincha, uning ko'lamini qisqartirish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Buni quyidagi raqamlar ham tasdiqlaydi: yashirin iqtisodiyotdan davlat budgetiga tushmagan mablag'lar (soliq yuki YAIMga nisbatan 18 foiz hisoblanganda) 2019-yilda 51 trillion so'mni, 2020-yilda 57 trillion so'mni, 2021-yilda 58 trillion so'mni, 2022-yilda esa 85 trillion so'mni tashkil etgan.

Endi e'tibor qiling, ushbu mablag'ga nimalar qilish mumkin, shuni bir yil misolida tahlil qilib ko'ramiz. Birgina 2022-yilda yashirin iqtisodiyot tufayli davlat budgetiga tushmay qolgan 85 trillion so'm ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganda:

## Mulohaza

## YOQIB YUBORILAYOTGAN BOYLIK

Keyingi yillarda Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyaning tumanlardagi melioratsiya uchastkalari xodimlari zovurlardagi qurigan qamish, g'umay, yulg'unlarni yoqib yubormoqda. Bu ish, avvalo, atrof-muhitga ziyon yetkazaypti, musaffo havoni ifloslantirib, insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotir.

Aslida, tadbirkorlikdan ozgina xabardor kishi uchun zovur-kollektorlar ichi va qirg'og'ida o'sadigan qamishlar tengsiz boylik. Chunki Amudaryo bo'yilaridagi qurigan qamishlar o'rib olinib, ulardan "Surxon sanoat kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining Termiz shahri hamda Muzrabot tumanida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini sexlarida turli o'lchamdagi devorbop, shiftbop, polbop "DVP" mahsulotlari tayyorlanaypti. Ushbu korxonada ishlab chiqarilgan qurigan qamishlarni o'rish, tashib keltirish uchun qancha texnika, ishchi kuchi jalb etmoqda. Zovur-kollektorlar ichi hamda qirg'og'larida o'sadigan qamishlar qurigacha, o'rib olinib, o'sha korxonalariga topshirilsa, ham xalq xo'jaligi foyda ko'radi, ham melioratorlar daromad ortadi.

Amu-Surxon ITHB huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasi mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga qaraganda, viloyatning Angor, Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Termiz, Sherobod tumanlari hududida yer osti sizot suvlarini chiqarib ketuvchi jami 1112 kilometr uzunlikda xo'jaliklararo, 5620 kilometr uzunlikda ichki kollektorlar, dehqonchasiaga aylantirilgan zovurlar mavjud.

Shu o'rinda, zovurlar ichi va qirg'og'ida qamish nega tez o'sadi, deraqon savol paydo

bo'ladi. Har yili kollektorlar navbati bilan ekskavatorlar yordamida tozalansa-da, baribir yovvoyi o'tlarni, xususan, qamishni tag-tomiri bilan yo'qotish qiyin.

Bilasiz, zovurlarga g'alla, paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan dalalardan sizot suvlari tushadi. Bu ekinlarni sug'orish jarayonida suvning bir qismini o'simliklar o'zlashtirsa, bir qismi yer ostiga singadi, ortiqchasi zovurlar orqali daryolarga oqib tushadi.

G'alla, paxta va boshqa ekinlar parvarishi jarayonida yerga mahalliy hamda mineral o'g'itlar solinishi hammaga ayon. Istaymizmi-yo'qmi, yer va o'simliklar o'g'itlarni to'liq "hazm" qilolmaydi, ya'ni o'zlashtirilmaydi. Natijada o'g'itlarning bir qismi sizot suvlari bilan zovurgacha tushadi. Shubhasiz, mineralarning obihayot zovurlardagi qamishlarning tez o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu bois, vohaning yuqorida nomlari keltirilgan tumanlari hududidagi zovurlarda qamish va boshqa o't-o'lanlar tez o'sib, bo'yi bir metr dan uch metrgacha yetadi. Yoz va kuz oylarida bu qamishlarni o'rish yoki yoqib yuborish imkoniyati yo'q. Sababi, zovurlarda sizot suvlari oqib turadi, boz ustiga, qamishu

g'umay yam-yashil bo'lgani tufayli o't qo'ysangiz ham yonib ketmaydi.

Ayni kuzning oxiri va qishning boshida qurigan qamishu g'umay xunuk manzara kasb etib, tumanlar meliorativ uchastkalari xodimlariga katta tashvish tug'diradi. Katta yo'llar chetidagi zovurlar ichida sarg'ayib turgan qamishlarga ko'zi tushgan odam borki, melioratorlarga: "Zovurlaringni tozalab qo'ysalaring bo'lmaydimi?" deya dashnom beradi.

Tumanlardagi meliorativ uchastkalarda atigi uch-to'rt nafar mutaxassis ishlashini inobatga olsak, ularning qurigan qamishlarni yo'qotishdan boshqa tashvishi ham yetarli. Boz ustiga bir tuman hududida kamida 600-700 kilometr uzunlikda kattayu kichik zovur bor. Shuncha joydagi qamishu g'umayni uch nafar mutaxassis hech qachon yo'qota olmaydi. Oqibatda nima bo'lyapti? Meliorativ uchastka xodimlari kattayu kichik rahbarlarning dashnomlaridan qutulish uchun qurib qolgan qamishu g'umaylarni yoqib yuboryapti. Bu "qilg'iliq"lari uchun dashnom ustiga dashnom eshitmoqda. Tuman hokimligi mutaxassislari: "Nega o't qo'yding?" deb do'q qilsa, tuman ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari bo'limi xodimlari: "Musaffo havoni ifloslantirayapsanlar, bu uchun jarima qo'llaymiz", deb iddao qiladi.

Xullas, meliorativ uchastka xodimlari zovurlardagi qamishu xaslarni yoqishni ham, yoqmaslikni ham bilmay arasatda. Yoqmasa, bahoru yozda zovurlarda sizot suvlari yurishi qiyinlashadi, yoqsa, gap-so'z ko'p, jarima qo'llaymiz, deyishadi.

— Zovurlarda erta bahor va yozda



gurkirab o'sadigan, kech kuzga borib, sarg'ayib qurib qoladigan qamishu g'umayni yoqib yuborish uchun qurib qolgan qamishu g'umayni yoqib yuboryapti. Bu "qilg'iliq"lari uchun dashnom ustiga dashnom eshitmoqda. Tuman hokimligi mutaxassislari: "Nega o't qo'yding?" deb do'q qilsa, tuman ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari bo'limi xodimlari: "Musaffo havoni ifloslantirayapsanlar, bu uchun jarima qo'llaymiz", deb iddao qiladi.

— Bundan yigirma besh-o'ttiz yil muqaddam suv xo'jaligi tashkilotlarining texnika saqlash parklarida o'ngacha yaqin maxsus texnika bor edi. Bu texnikalar zovur yoki kanalning himoya zonasidagi yo'lakdan yurur, o'rgich asboblari zovur va kanalning ichi hamda qirg'og'ida o'sgan qamishu o't-o'lanlarni o'rib ketaverardi. O'rilgan massani ishchilar zovur va kanal ichidan tashqariga chiqarardi, — deydi Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi avtotransport va mexanizmlardan foydalanish bo'limi boshlig'i Ashurmuhammad Mamatqulov. — Hozir o'sha texnikalar yo'q.

Angor tumani meliorativ uchastkasi boshlig'i Bozor Mamatqulovning kuyinchaklik bilan bildirgan fikriga shuni

qo'shimcha qilmoqchimizki, zovurlarni qamishu har xil o'tlardan tozalash faqat Surxondaryo viloyatining Angor, Bandixon, Muzrabot, Termiz, Qiziriq, Sherobod tumanlarining emas, balki Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari soha xodimlarini ham o'ylantirayotgan muammodir.

Prezidentimizning joriy yil 5-yanvardagi "Quyilgan suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan (manbaga ko'ra, hozir ushbu hujjatda o'zgartirish kiritilmog'anda), Vazirlar Mahkamasining "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda tumanlar irrigatsiya bo'limlari va ular huzuridagi suv xo'jaligi maxsus xizmati sho'balari negizida yangidan tashkil qilinayotgan "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash belgilangan. Xususan, maxsus texnikalar xarid qilish uchun 150 milliard so'm ajratiladi. Tumanlar meliorativ uchastkalari Suv xo'jaligi vazirligi tarkibiga kiruvchi korxonalar hisoblanadi. Shunday ekan, tumanlar meliorativ uchastkalari zovur va kollektorlarni qamishu har xil o't-o'lanlardan tozalashda foydalaniladigan maxsus texnikalar bilan ta'minlash choralari izlash hayotiy zaruradir.

Zamon o'zgaryapti, qishloq va suv xo'jaligi sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilayotir, kundan-kunga zamonaviy texnikalar ishlab chiqarilmog'anda. Shunga qaramay, viloyat meliorativ ekspeditsiya bazasida loqal bitta bo'lsa ham maxsus texnika yo'q, ammo zovur-kollektorlar har mavsum qurigan qamishu g'umaylardan tozalani shart. Natijada soha mutaxassislari qamishlarga o't qo'yib, ham tabiatga, ham iqtisodiyotga ziyon yetkazaypti.

**Usmonali NORMATOV,**  
**jurnalist**



## Yangilanish odimlari

## PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI

ta'lim, fan va ishlab chiqarish  
integratsiyasining amaliy mexanizmi

Yangiliklarni qabul qilish hamma davrlarda ham oson kechmagan. Ayniqsa, u ta'lim-tarbiya, ilm-fan bilan bog'liq bo'lsa, ilmiy jamoatchilik tomonidan tabiiy savollarga tutilishi muqarrar. Jamoatchilikning mavjud an'analar qobig'idan chiqib, yangiliklarni qabul qilishida hafsalasizlik, yuzaki qarashlar, stereotiplardan voz kecha olmaslik bilan bog'liq psixologik jarayonlar ham mavjud. Bunday vaziyatlarda taqdim etilayotgan g'oya, taklif yoki loyihalar sharh va izohni talab qiladi.



Chirchiq davlat pedagogika universitetining asosiy strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri modeli" uzluksiz ta'limni rivojlantirishda hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq yangilik sifatida ushbu jarayonni boshdan kechirmoqda. Shu munosab bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor G'ofurjon MUHAMEDOV bilan pedagogik ta'lim klasteri, uning mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari borasida suhbatlashildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan uzluksiz ta'lim tizimi uning bo'g'inlari o'rtasida integratsion jarayonlarni ham mazmunan, ham shaklan ta'minlashni talab qiladi. Bu borada shu paytgacha tizimda muayyan ishlar amalga oshirilgan, albatta. Ammo ta'lim ijtimoiy jarayon sifatida har doim jamiyat talablariga muvofiq o'zgarishlarni, yangilanishlarni talab qiladi. Tizimda ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishga bo'lgan zaruratni qanday izohlaysiz?

Mamlakatimizda ta'lim tizimining mustaqillik yillaridagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davr mobaynida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganing guvohi bo'lamiz. Aytish joizki, ta'lim turlari o'rtasidagi aloqa va uzviylkning ta'minlanishida mazmun va shakl bilan bog'liq ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Bu esa pirovardida maqsadni belgilashdagi tarqoqlikka, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyaning sustlashuviga va ta'lim sifati pasayishiga sabab bo'ldi. Hali-hanuz ta'lim turlari o'rtasidagi munosabat, hamkorlik mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning optimal modeli taklif qilingan emas. Kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi, ehtiyojlar to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklif chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanat buzilishi ham kuzatilmoqda. Buning natijasida ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilmagan kelmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'lim borasida bildirgan fikrlarida sohada uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish, ta'limiy hamkorlik muammolariga innovatsion yechimlar ishlab chiqarish lozimligini bir necha bor ta'kidlagan. Ayni shu munosabat bilan Chirchiq davlat pedagogika universiteti ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning amaliy mexanizmi sifatida Pedagogik ta'lim innovatsion klasterini o'zining strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilagan.

O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandi, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat yo'lga qo'yilishi, sog'lom raqobat ta'minlanishi, manfaatlarining sifati qondirilishiga erishish talab etiladi. Oliy pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlik uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zarurati taqozo etmoqda. Bu borada Chirchiq davlat pedagogika institutidagi pedagogik ta'lim klasterlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va uning amaliy jihatlari tadqiq qilinmoqda.

Demak, Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim turlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini klaster modeli asosida takomillashtirish strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilangan. Tajribadan ma'lumki, klaster modeli iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali hisoblanadi. Ushbu modeli ta'lim tizimiga tatbiq qilish, sizningcha, nazariy jihatdan qanchalik to'g'ri va asosli?

Dunyo tajribasida ta'lim klasterlashtirish modeliga o'tkazish bilan bog'liq tajribalar mavjud. AQSHning Massachusetts va Garvard universitetlarida iqtisodiyot tarmoqlarida

mavjud ishlab chiqarish jarayoni ketma-ketligi ta'lim klasterlarida inson kapitalining bozor mexanizmlaridagi ekvivalenti sifatida modellashtirilgan. Darhaqiqat, iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida quyidagi universal algoritim (zanjir) amal qiladi: **xomashyo — xomashyoga ishlov berish — mahsulot — bozor — xaridor**.

Iqtisodiyotdagi klaster modeli ishlab chiqarish zanjiridagi mazkur halqalq orqali mahsulot tannarxini arzonlashtirish va sifatini yaxshilashni, pirovardida ishlab chiqarish subyekting raqobatchiligi oshirishini nazarda tutadi.

Ishlab chiqarishning universal algoritmi kadrlar tayyorlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi soha — uzluksiz ta'lim tizimida ham mavjud. Zero, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining xomashyosi ham, mahsuloti ham insondir. Ta'lim tizimida ishlab chiqarishning universal algoritmi mana bunday ko'rinishda bo'ladi: **tarbiyalanuvchi (MTT) — o'quvchi (UM) — talaba (OTM) — o'qituvchi — ta'lim muassasasi — iste'molchi**.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri mazkur ta'lim bosqichlarini yagona umumiy maqsad atrofida birlashtirish, ular o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini xususiy manfaat

yo'nalishlarda xususiy metodologik xarakter kasb etadi. Bu esa muammoning yechimiga nisbatan deduktiv (umumiylikdan xususiylikka kelish) usulda yondashish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Siz aytayotgan hamkorlik mexanizmlari bugungi kunda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash shaklida amaliyotda mavjud. Shunga qaramasdan, klaster hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga qanday zarurat bor edi?

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi tadrijni kuzatish bizga uning mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda. Bu uchala sohaning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va u orqali ta'limning fanga, faning ishlab chiqarishga "xizmat qilishi"ga erishish, darhaqiqat, muhim. Ammo yillar davomida mazkur uchlikni o'zaro uzviy bog'laydigan, ularning hamkorligini ta'minlaydigan va integratsiyasini qaror toptiradigan samarali mexanizm ishlab chiqilmadi. Bizningcha, buning sababi bu uchlikning har biri alohida tizim sifatida o'zida bir qancha subyektlarni birlashtirishda ko'zga tashlanadi. Birgina ta'lim tizimini olib qaraydigan bo'lsak, unda ta'lim bosqichlari o'rtasidagi hamkorlik, munosabat masalalari, ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan talablar, vositalarni zamonaviylashtirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog'liq juda ko'plab masalalar mavjudki, ularni yo'lga qo'ymasdan turib, uchlik integratsiyasini ta'minlash qiyin. Ta'limdagi vertikal integratsiyalarni ta'minlamasdan ta'lim, fan va ishlab chiqarishga asoslangan

yaxshilanadi, olib tashlash bilan esa haloklati oqibatlar kuzatilmaydi.

Biz tadqiqotlarimiz natijasida bugungi kunda klasterning tizimdan farqli jihatlarni aniqlashdik. Ular quyidagilardan iborat:

**Birinchi**, tizim elementlarining har biri alohida vazifani bajarsa-da, ammo ular muhimlik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Klaster tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.


**Ikkinchi**, tizim tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi butun tizim nuqsonli ishlashga yoki ishlamasligiga sabab bo'ladi. Klaster tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, biroq qolgan elementlar faoliyatini to'xtatib qo'ymaydi.

**Uchinchi**, tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klaster tarkibidagi elementlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka asoslanadi.

**To'rtinchi**, tizimni tashkil qiluvchi elementlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterda xususiy manfaatdorlik subyektlar ishlamaydi.

**Beshinchi**, tizimda yagona maqsad mavjud va har bir element o'sha maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Klasterda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir elementning xususiy maqsadi ham bo'ladi. Subyektlarning xususiy maqsadlari umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

**Oltinchi**, tizimni alohida qismlardan iborat butunlik, klasteri esa alohida butunliklardan iborat butunlik, deysish mumkin. Ta'lim klasteri o'zida nafaqat ta'lim turlari o'rtasidagi, balki fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta'limni boshqarish, ta'lim vositalari va shakllari bilan bog'liq sohalarni ham jamlaydi. Klaster yondashuvi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari, yo'nalishlari, uzviylik, integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi



O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat yo'lga qo'yilishi, sog'lom raqobat ta'minlanishi, manfaatlarining sifati qondirilishiga erishish talab etiladi.

**Vorisilik tamoyili:** klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta'limni klasterlashtirish natijasida subyektlarning malakali pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojini muntazam qondirilishiga erishishdir.

**Yo'naltirilganlik tamoyili:** klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo'naltirilgan, kutilayotgan natijalarning oldindan chamlash va baholash imkoniyati mavjudligidir.

**Zamonaviylik tamoyili:** sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish.

**Maqsadning umumiyliyi tamoyili:** klaster subyektlarining xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektidagi yagona maqsad atrofida birlashuvi.

**Manfaatlar xususiyliyi tamoyili:** pedagogik ta'lim klasteri modelida har bir subyekting huquqi, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lishi.

**O'zaro nazorat tamoyili:** klaster modeli doirasida birlashgan ta'lim subyektlarining o'zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir subyekting manfaatdor ekanligi, ma'lum subyektda yo'l qo'yilgan xato yoki kamchilik boshqa subyektlar faoliyatiga samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi, subyektlar faoliyatini o'zaro baholash tizimi yo'lga qo'yilishidan iborat.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim klasterini yaratishda bir necha muhim yo'nalishlarni belgilab olish mumkin bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat: birinchi, klaster subyektlari o'rtasida umumiy maqsadning mavjudligi, ikkinchi, subyektlarning birgalikdagi faoliyatining huquqiy asosga egaligi, uchinchidan, klaster doirasida birlashgan subyektlar o'rtasidagi o'zaro maqsadli munosabatlardan iborat.

**Tushunishimizcha, pedagogik ta'lim klasteri o'zining ilmiy-nazariy asoslariga, tadqiqot yo'nalishlariga va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlariga ega model sifatida ilmiy jamoatchilikka taqdim qilinmoqda ekan. Chirchiq davlat pedagogika universitetining ushbu strategik ilmiy tadqiqot loyihasi qanday ta'limiy tamoyillarga asoslanadi?**

Pedagogik ta'lim klasterining aniq maqsad va vazifalarini belgilash, faoliyat chegaralarini oldindan ko'ra bilish uchun uning qanday tamoyillarga asoslanishi haqida aniq xulosalarga kelib olish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining tamoyillari va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim klasterining tamoyillari takomillashtirildi. Ularning ayrimlari ta'lim tizimida yondashuv, shakl yoki mazmun hodisasi sifatida mavjud. Chunki pedagogik ta'lim innovatsion klasteri mamlakatimizda amalga bo'lgan ta'lim tizimiga muvofiq yangi ta'lim modeli emas. Ushbu modelni mavjud tizimni takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuv sifatida tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi va bu biz taklif qilayotgan tamoyillarni tushunishga, amalga o'lashga yordam beradi.

**Tabiiy aloqadorlik tamoyili:** klaster subyektlari o'rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiylik, ya'ni bog'liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan obyektivligidir.

**Uzviylik va uzluksizlik tamoyili:** klaster subyektlarining o'zaro bog'liqlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo'g'in o'zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo'shliqlarga yo'l qo'yilmayligidir.

**Izchillik tamoyili:** klaster subyektlarining vertikal yagona chiziq bo'yab joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendentsiyasiga amal qilinmaydi.



**“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**



Turkiy adabiyot durdonasi

“SAFAHOT”

tarixiy birdamlik va ulug‘vorlik dostoni



XX asr turk she'riyatining zabardast vakili Mehmed Okif Erso'y qalamiga mansub "Safahot" asarining o'zbek tilida nashr qilinishi adabiy hayotimizdagi muhim voqealardan biri bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz. Asar iste'dodli shoir va mohir tarjimon, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Do'stlik" ordeni sohibi Miraziz A'zam tomonidan o'zbek tiliga o'girildi. Mazkur nashr Turkiya Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi tashabbusi bilan amalga oshirildi.

Adabiy aloqalar badiiy tarjima, jonli muloqotlar, ijodiy hamkorlik, do'stona munosabatlar, ustoz-shogird an'analari o'zida shakllangan muhim jarayon bo'lib, millatlarning ma'naviy-madaniy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi o'zbek adabiyotining ko'rkli bo'lgan asarlarni chet tillarga, xorijiy xalqlar adabiyotining mumtoz namunalarini esa ona tilimizga tarjima qilish, bir tomondan, milliy adabiyotimizga yangi adabiy havoning kirib kelishiga, yangi badiiy-uslubiy izlanishlarning paydo bo'lishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, binobarin, notinch dunyoda tinchlik-totuvlik, mehr va muhabbat rishtalari mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

qo'llab-quvvatlovchi turk millatining umumiy vijdonidir. Zero, "Safahot"da ta'kidlanganidek: Millat aro nifoq solib, so'ngra kirar yurtga dushman, Birga urganda yuraklar, vayron bo'lmas hech bir maskan.

Shoir insoniyatning o'tmishi va buguniga ham nazar tashlaydi, turli davrlar va davlatlarni qiyoslaydi, tarix haqiqatlarida ham mavjud vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi, bong uradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ulug'laydi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo'lib o'tgan "Safahot" taqdimotida Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi rahbari Serkan Kayalar mana bu so'zlarni ta'kidladi:

— Mustaqilligimizning bayonnomasi

XX asr turk she'riyatining zabardast vakili Mehmed Okif Erso'y qalamiga mansub "Safahot" asarining o'zbek tilida nashr qilinishi adabiy hayotimizdagi muhim voqealardan biri, desak adashmagan bo'lamiz. Asar iste'dodli shoir va mohir tarjimon, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Do'stlik" ordeni sohibi Miraziz A'zam tomonidan o'zbek tiliga o'girildi. Mazkur nashr Turkiya Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi tashabbusi bilan amalga oshirildi.

Turk adabiyotida eng ko'p nashr, mutolaa va tadqiq qilingan asarlardan biri bo'lgan "Safahot" turli yillarda chop etilgan, mustaqil, mazmunan bir-birini to'ldiruvchi ijod namunalarini jamlagan yetti kitobdan tashkil topgan. Unda ijtimoiy-siyosiy voqealar tasvirlanar ekan, mamlakatdagi ayanchli ahvol, ma'rifatga, taraqqiyotga intilmaslik, mutelikka ko'nikish, insonlar tabiatidagi noqisliklar, rivojlanishga to'siq bo'ladigan irqchilik, millatchilik, jaholat, dangasalik, loqaydlik, jangu jadallar, o'zlikni, asiy qadriyatlarini unutish, G'arb hayot tarziga ko'r-ko'rona ergashish kabi illatlar tanqid qilinadi. Shoir umming o'ta qadrlil ne'matligi, hayotda inson degan ulug' nomga munosib yashash, ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratish kerakligi haqidagi fikrlarni Qur'on oyatlarini, hadisi shariflar asosida singdirishga urinadi. O'zi guvoh bo'lgan iztirobli voqealar, safarlardagi kuzatishlar, taassurotlarni tasvirlar ekan, millatni bu holatdan qutqarishini so'rab Yaratganga iltijo qiladi.

"Milliy madhiyamiz muallifi, turk-islom olamining buyuk mutafakkiri va shoiri Mehmed Okif Erso'yning "Safahot" asari o'zbek tilida nashr etilganidan juda mamnunman, — deydi Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an "Taqdim" deb nomlangan kitob so'zboshisida. — Buning sababi "Safahot"ning nafaqat doimiy hamroh bo'lgan durdonada shoh asar ekanligi, balki Okifning men sevib o'qiydigan, qalbin dunyosini zinatlagan shoirlardan biri ekanligidir. Bu asar ayni vaqtda turk millatining o'zbek qardoshlarimizga, Onado'lining muzaffar qo'shinlariga bag'ishlab she'rlar yozgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponga, Sakarya g'alabasini maydonlarda nishonlagan buxoroliklarga minnatdorlik ifodasi hamdir... Bu asarning o'zbek tilida chop etilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev janoblarining qadimiy madaniyatimizni targ'ib qilish yo'lidagi fidokorona sa'y-harakatlarining samarasi deb bilaman".

Darhaqiqat, Turkiyada milliy ozodlik kurashi davom etar ekan, turkistonlik jaded



va Fitrat ham o'z she'rlari bilan bu qo'llab-quvvatlashning bayroqdori bo'ldi. O'zbek she'riyatining so'nmas ovozi Cho'lponning Onado'li muzaffar qo'shinlariga bag'ishlab yozgan "To'fon" nomli she'ri ikki xalqning mustarak dostonidir.

— Har bir xalqning tarixida ko'zga ko'ringan va birlashtiruvchi nomlar mavjud, — deydi Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Erso'y. — Madaniyat, tarix va millat mana shunday insonlarda o'z aksini topadi. Mustarak qadriyatlar va ayni his-tuyg'ularga ega bo'lish shuuri ushbu insonlar orqali yashaydi, madaniy ong ular orqali avlodlardan-avlodlarga o'tadi. Xalq shoirimiz Mehmed Okif Erso'y turk millati uchun shunday siymolardandir. U, avvalo, Istiqlol madhiyamizning shoiri. Usmonlilar imperiyasining parchalanishini ko'rgan, o'z yurtining deyarli har bir go'shasini kezib, milliy uyg'onish chirog'ini yoqish uchun sa'y-harakat qilgan, kurashdan hech qachon qaytmagan monumental shaxsdir. Uning kurashi faqatgina xalqning yashashi va ozodligi uchun emas, balki haq va adolat uchun kurashdir. Okif Haqni ulug'lagan, adolati himoya qilgan, haqiqat uchun hayqirgan, hamijhatlikka chorlovchi, hamisha birodarlikni

bo'lgan Milliy madhiyamiz bilan birga "Safahot" kabi ajoyib asarni meros qoldirgan Mehmed Okifning onasi buxorolik bo'lgan usmonli turkiydir. Dastlabki diniy ta'limni Fotihdagi Amir Buxoriy mahalla maktabida olgan, milliy ozodlik kurashi davrida esa Uskurdardagi o'zbeklar takkasi orqali Onado'liga ketgan Mehmed Okifning Turkiston mintaqasi bilan bo'lgan ko'ngil rishtasi butun umri davomida, shu jumladan, surgunda yashagan davrlarida ham hech qachon uzilmagan. Usmonlilar imperiyasi tashqarisidagi turkiy xalqlarning muammolarini Turk dunyosining turli burchaklaridan kelgan do'stlari bilan birgalikda chop ettirgan "Sebilurresad" jurnalidagi ko'plab maqolalarida yoritgan. "Safahot" asari marhum Okifning azz xotirasiga hurmat bajo keltirish bilan birga, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi qardoshlik rishtalarining eng aniq va tarixiy namunalaridan biridir.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ta'kidlashicha, "Safahot"ning o'zbek tilidagi nashrida asiyatga xos xususiyatlarni aks ettirish barobarida asarga ijodiy yondashuv ham kuzatiladi. Tarjimada ijodkor uslub, davr ruhi, asar badiiyatini saqlab qolish, shuningdek, tarjima qilnayotgan asarning

janr xususiyatlari, bugungi kun o'quvchisiga tushunarli bo'lishi kerakligi ham hisobga olingan. Bu nashrning tarjimashunoslik sohasidagi yangi izlanishlarga yo'l ochishi shubhasizdir.

— "Safahot" faqat qalbinga quvonch, kutubxonamga fayz kiritibgina qolmay, qadami ham qutlug' keldi, — deydi asar tarjimoni Miraziz A'zam. — O'tgan yili Mustaqillik bayrami arafasida Prezidentimiz farmoniga ko'ra, "Do'stlik" ordeni bilan taqdirladim. Men "Safahot"ni tarjima uchun tasodifiy tanlamadim. Tarjimonlik faoliyatimning ilk davrlaridan boshlab turk adabiyoti bilan qiziqqanman. O'zimga yoqgan asarlarni o'zbek kutubxonlariga yetkazishni burchim deb bilganman. Turk adabiyotining sara asarlarini tarjima qilgan Mirzakalon

berdi. Salomatligi sal yaxshilandi degunicha "Safahot"ga yopishardi.

— Ushbu kitob Miraziz akaning necha yillik zahmatlari samarasi, — deydi tarjimonning turmush o'rtog'i, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoiri Qutlibeka Rahimboyeva. — Yetti kitobdan iborat bu asami hali ko'zlari xiralashmasdan, quloqlari yaxshi eshitadigan paytlarda kompyuter boshiga muk tushib, tularni tonglarga ulab tarjima qilgan edi. Oxirgi kitoblarga kelganida, Afg'onistonda olgan jarohati tufayli keyinchalik yetti-sakkiz marta operatsiya ko'rgan umurtqa pog'onasidagi og'riq kuchayib, yozishga qurbi kelmay qolgandi. Ammo sal og'riqlar pasaysa, yana darrov kompyuterga o'tirar edi. "Imkondan ortiq imkon topilmas", degan ekan bir donishmand.

olgan edi. Kitob muharriridan ayni jarayon bilan bog'liq taassurotlarini so'raganimizda u shunday dedi:

— Xursandligimning boisi shunday muazzam asarning turkiy tillarga ilk to'liq tarjimasining o'zbek tilida bo'lishidir. Xavotirlanishimning sababi esa tarjimonning mashhur va tajribali ijodkor ekanligidir. Ustoz Miraziz A'zam bilan shaxsan tanish emas edim. Dastlabki uchrashuvdayoq milliy g'ururi, Vatanga, ona tilimizga, adabiyotimizga, ijodga, turkiy dunyoga muhabbati juda kuchli bo'lgan, metin irodaga, o'zining qat'iy fikriga ega ijodkor qarshisida ekanimni his qildim. O'zaro suhbat, tahrir bilan bog'liq savol-javoblardan so'ng takliflarim qabul qilinishidan deyarli umid uzdim. Ayni paytda bu insonning o'ta madaniyatli ekani ham e'tiborimni tortdi. Meni



Ismoil, Miad Hakimov kabi yozuvchilarimiz qatori O'rxon Kamolning "El qizi", Nozim Hikmatning "Sochlari somon sarig'i, ko'zlari moviy", O'rxon Pomuqning "Istanbul" kabi asarlarini, Dog'larja, keyinchalik Mehmed Do'g'on, Ali Oqbo'sh kabi bir necha yozuvchi, shoirilar ijodi bilan o'quvchilarimizni tanishtirganman. "Safahot"ga boshqacha mehrim tushdi. Bu asarni Turkiyaga safarlarim chog'ida topdim. O'zaro gurgunglarda, undagi hasratlarda o'tgan asrimizda yashab o'tgan jaded bobolarimiz og'riqlariga yaqinlik sezdim. Bizning Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Is'hoqxon To'ra Ibrat kabi ko'plab bobokolonlarimiz istibdod tufayli tobora jaholat botqog'iga botib borayotgan xalqimizni ma'rifat bilan yuksaltirish uchun, yuraklarida hurriyatga, ozodlikka sog'inch uyg'otish uchun astoydil harakat qilganlar. Bu g'oya ularning faoliyatida ham, yozgan asarlarida ham aks etgan. Mehmed Okif Erso'y ham aynan mana shu milliy dostonida turk xalqi, musulmon xalqlarining g'ofiliklari, aksariyatining mayda-chuyda tashvishlar bilan o'ralashib qolayotgani tufayli Yevropa davlatlaridan orqada qolib ketayotganini qalbi

"O'zingizni hadeb urintiravermang", deya koyinsam, "Bu mening so'nggi ishim bo'lishi mumkin, ulgurishim kerak," derdi. Mana, Yaratganga shukur, ulgurdi.

Qutlibeka opa bilan "Saodat" jurnalida birga ishlagan kezarimizda ham "Safahot" tarjimasida bilan bog'liq jarayonni bizga gapirib bergani esimda. Ayniqsa, Miraziz akaning "Bekam, sen menga ko'z-u qo'l bo'l, shu tarjimani poyoniga yetkazaylik", degan so'zlarini aytib berganida bu ikki ijodkorning mehr-u muhabbatiga, bir-biriga bo'lgan oqibatiga juda havasimiz kelgan. Opa yillar davomida kitob, jumallarning tahrir ishlaridan bo'lari bo'lib yurgani uchun bo'yni yor bermagan, bemor yotgan odamning boshida turib, kim ham lug'atlar bilan ishlashni gardaniga olishi haqida kuyinib aytgan bo'lsa-da, bir oz vaqt o'tgach, jurnal bosh muharriri Munavvara Usmonova ayni xayrli ish uchun ta'lib bergani haqida quvonch bilan so'zlagan edi.

— Avval bo'ynim yor bermay, boshlangan ish bir-ikki sahifadayoq meni o'ziga tortib ketdi, — deydi hayajon bilan Qutlibeka opa. — Mayda-chuyda bid'atlarga o'ralshib, taraqqiyotdan orqada qolib ketgan millat, ular orasidagi fitna-fujurlar... Balandga ko'tarilish uchun bilim olishga da'vat... O'xshash illatlar, o'xshash og'riqlar... Qulog'imga Mehmed Okif Erso'yning ovozigina og'oshilib, o'zimizning millatparvar jadedlarning hayqiriqlari, qichqiriqlari kelganday bo'lar edi. Miraziz aka yotgan ko'yi satrlarni tuzatar, men kompyuterda to'g'riladim. Ba'zi satrlarning oxiriga yetgunimizcha boshi esidan chiqib qolar... Ish nihoyatda qiyinchilik bilan kechardi. Rahmatli Omon Matjonning "Gaplashadigan vaqlar"iga o'xshab satrlari uzun-uzun edi... (Balki Omon akayam bu asarni o'qigandir, axir ashdadiy kitobxon edi). Hozir to'q jiggar rang muqovali muhtasham kitobni qo'limga olar ekanman, o'sha zahmatli kunlarni esladim.

Chindan ham "Safahot"ni o'qigan yurtdoshlarimiz Turkiya tarixining burilish nuqtalaridan biriga guvoh bo'ladi. Turk millatining ozodlik kurashini, jasoratini va g'alabasini ko'radi. Bu kitobni o'zi uchun qo'llanma qilib olgan yoshlar haqiqat va adolatning bukilmis himoyachisi bo'lib yetishadi. Shu munosabat bilan Mehmed Okif timsolidagi yuragi vatan, millat deb urgan barcha shoiralarimizni har qancha rahmat va minnatdorlik bilan yodga olsak arziydi.

Mazkur nashrga muharrir bo'lish Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi Sabohat Bozorovaga taklif qilinishidan uning qalbinu juda qattiq xavotir va hayajon chulg'ab



o'rtanib, yuraklari qonab yozadi.

Miraziz A'zam aytib o'tganidek, Mehmed Okif Erso'y qahramonlari tili bilan ularni o'z hayoti haqida chuqurroq o'ylashga da'vat etadi. Tarjimon oldin asarning bir-ikki sahifasini tarjima qiladi. Lekin asardagi g'oya uni tinch qo'ymaydi. Qayta-qayta bu kitobga yuzlanaveradi. Fidoyi adib har doim "Agar "Safahot"ni to'la o'zbekchalashtirishga umrim yetsa, bu mening ijodimdagi eng yaxshi ishim bo'ladi", deb aytar edi. Ammo so'nggi kitoblariga o'tirganida xastalik pand

Publication information including publisher (MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi), author (Salim DONIYOROV), and contact details for the journal.